

Asragil

Kapalak o‘zin urmas haroratsiz shu’laga,
Chigirtka ham jo‘r bo‘lmas begona ashulaga.
Nurdek qadim oning bor,
Dovrug‘ing bor, shoning bor,
Bo‘y berma chalajanob yoki chalamullaga.
Qalb qo‘rg‘onin chechagi — pok niyatni asragil,
O‘zni, o‘zlikni, millat, milliyatni asragil!

Bolasin o‘ylamagan qumursqa yo qush qayda?
Beshikning duk-dukidek yurakka tovush qayda?
O‘zbekka or ma’nodosh,
Ibo-hayo — ko‘zu qosh,
G‘urursiz Bek qaydayu ibosiz Kumush qayda?
Yuraging tumor bo‘lsin, qutlug‘ xatni asragil,
O‘zni, o‘zlikni, millat, milliyatni asragil!

Otasini unutgan, iblis etagin tutgan,
Kutsa xat-xabar emas, nafsiga malham kutish,
Betizgin, salt, bejilov,
O‘ziga ham o‘zi yov.
Mushuk o‘ynagan g‘altak kabi chuvalib ketgan –
Ketgan kas-nokaslardan qadriyatni asragil,
O‘zni, o‘zlashishi, millat, milliyatni asragil!

Manzil-marohil tayin bo‘lmasa jilmas karvon,
Hech qursa, sardobaga yetguncha tinmas karvon.
O‘ysiz yo‘lovchi bo‘lmas,
Maqsadsiz ovchi bo‘lmas,
Olsin yo‘lni ko‘zlasa yo‘rg‘aga minmas karvon,
O‘rkach-o‘rkach g‘urur-or, hamiyatni asragil,
O‘zni, o‘zlikni, millat, milliyatni asragil!

Bugunsh kecha uchun ham ertangi tong uchun,
Osmon kumushjomida quyosh urgan bong uchun,
Yangi yurish boshlandi,
So‘nggi urush boshlandi -
E‘tiqod-iymon uchun, qalb, tafakkur, ong uchun!
Qorako‘z bolaizor - jamiyatni asragil,
O‘zni, o‘zlikni, millat, milliyatni asragil!

Iqbol Mirzo
O‘zbekiston xalq shoiri
O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasidan